



1991-yildan
chiqa boshlagan

Maxsus son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

TOSHKENT VILOYAT CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI - 5 YOSHDA



Ushbu son



Dolzab mavzu

Og'zaki va yozma nutq –
komillik belgisi

5
bet



Tahlil

Hamid Olimjon lirikasida
epitetning semantik-
stilistik xususiyatlari

16
bet



Tadqiqotlar

Navoiy lirikasida obrazni
ifoda etishda ritm va
mazmun uyg'unligi

49
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODIOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturasini. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komillik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish	8
ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqollar badiiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mushtarakligi	14
TAHLIL	
Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umida Shermatova. Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limida binar ma'ruza metodi	22
O'tkur Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - bebaho ma'naviy boylik!	
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	
Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mushtarak jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajan Tadjibayev. Germenevtikada psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofatoy Muydinova. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohigul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Munglig' qalblar kuychisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abduqahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimzoda niyoziyning ashulalarida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi?	73
Nodira Xolikova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - "xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Abdishukur SHOFQOROV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti,

filologiya fanlari nomzodi

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DAGI DIALEKTAL SO‘ZLAR

Annotatsiya. Maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da dialektal so‘zlarning berilishi va ularning ma‘no xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, izohli lug‘atda berilgan ot so‘z turkumidagi dialektal so‘zlarning ma‘no guruhlarini farqlangan.

Kalit so‘zlar: leksikologiya, lug‘at, dialektizmlar, sheva, ma‘no guruhlar, turlari.

Annotation. The article discusses the meaning of dialect words and their semantic features in the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”. The semantic groups of dialect words in the group of noun phrases given in the dictionary are also differentiated.

Keywords: lexicology, dictionary, dialectisms, dialect, semantic groups, types.

Аннотация. В статье рассматривается значение диалектных слов и их семантические особенности в «Толковом словаре узбекского языка». Семантические группы диалектных слов в группе имен существительных, приведенной в словаре, также различны.

Ключевые слова: лексикология, словарь, диалектизмы, диалект, группы, типы значений.

Har qanday tilning so‘z boyligi, u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo‘lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug‘atlarda ma‘lum darajada aksini topadi. Bugungi kunda muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug‘atlarning turi, miqdori va sifati bilan o‘lchanmoqda. Hozirgi kunda leksikografiya masalalari, lug‘at tuzish an‘analari, til o‘rganishning o‘ziga xos qulay va samarali, sinovdan o‘tgan usullarini joriy etish kabi masalalar tilshunoslar e‘tiborini tortmoqda.

Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so‘zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba‘zi so‘zlar esa eskirib, iste‘moldan chiqadi. Buning ta‘sirida lug‘atshunoslik ham rivojlanib, boyib boradi. Ma‘lumki, muayyan yozuv yoki tilni lug‘atlarsiz to‘la ma‘noda o‘zlashtirish qiyin. Lug‘atshunoslik lug‘at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz so‘zning qanday ma‘no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan. Dastlabki tuzilgan lug‘atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega bo‘lgan. Lug‘atlarning turli shakllari, ko‘rinishlari soha taraqqiyotining keyingi davrlarida yuzaga kelgan.

“O‘zbek tili leksikografiyasi o‘n uch asrlik taraqqiyot tarixiga ega, unda davrlar osha katta miqdor va sifat o‘zgarishlari sodir bo‘lgan. O‘zbek leksikografiyasi o‘zining bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda o‘zbek tilining zamonaviy lug‘atlarini tuzish vazifalari dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi”. [6: 58]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni bilan 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada lug‘at tuzish ishlariga yangicha

yondashish, sheva so‘zlarini o‘rganishni takomillashtirish alohida ta‘kidlangan.

O‘zbek tilshunosligida leksikografiya rivojlanmoqda. Bu lug‘atlarning eng cho‘qqisi sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (O‘TIL)ni ko‘rsatish mumkin. Ushbu lug‘at bugungi kungacha uch marta nashr qilindi. 1981-yilda oltmish ming so‘z va birikmalarni qamrab olgan ikki jildli lug‘at, 2006–2008-yillarda sakson mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini qamrab olgan besh jildli lug‘at yuzaga keldi. Ushbu besh jildli lug‘at 2020-yilda qayta nashr etildi. Bu O‘TILga 850 dan ortiq dialektal so‘z va so‘z birikmalari kiritilgan. Ushbu so‘zlarning asosiy qismini ot so‘z turkumidagi so‘zlar tashkil qiladi. Ya‘ni O‘TILda 450 ga yaqin ot, 190 ga yaqin fe‘l, 130 dan ortiq sifat va 80 ga yaqin ravish so‘z turkumlaridagi so‘zlar berilgan. Shuningdek, izohli lug‘atda kam miqdorda bo‘lsa ham olmosh, son, taqlid so‘z turkumidagi so‘zlar hamda dialektal birikmalar mavjud.

Yuqorida berilgan raqamlardan ma‘lumki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da eng ko‘p berilgan dialektal leksika ot so‘z turkumiga mansubdir. Ushbu dialektal so‘zlarni bir qancha mavzuviy guruhlariga ajratish mumkin. Bular:

- qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar: *bibi* – buvi, *ada* – ota, *acha* – buvi, *yazna* – pochcha, *doda* – buva, *moma* – buvi, *qayliq* – qalliq, *biyi* – buvi, *bika* – beka, *bova* – buva, *buvak* – chaqaloq, *doda* – buva, *doyi* – tog‘a, *ena* – ona, *jezna* – pochcha, *jujuq* – go‘dak, chaqaloq, *moma* – buvi, *checha* – yanga, kelinoyi, *chaqa* – bola, farzand;

- oziq-ovqat nomlarini bildiruvchi so‘zlar: *kurdik* – xamir ovqatning bir turi, *ko‘mirchak* – qirmoch, *qurto-va* – parhez ovqat, *qayish* – xamir ovqatning bir turi, *chalob* – suzma;

- inson a‘zolari nomlari: *iyin* – yelka, *jinjiloq* – jimjiloq, *jombiz* – oyoqning tizza orqasidagi bukik joyi, taqim, *sirg‘aliq* – quloqning sirg‘a taqiladigan qismi, *chim-*

chaloq – jimjiloq, *buyur* – och biqin, *bebilchak* – oyoq ustining do'ng joyi;

- qurilish mollari nomlari: *jarg'i* – arra, *qirg'i* – randa, *yorg'i* – arra;

- hayvonlar: *tayxar* – ikki yoshli eshak, *ko'shak* – bo'taloq, *dusoq* – ikki yoshli qo'y, *davshan* – quyon, *tu-vcha* – bir-ikki yoshli echki;

- qush va hasharotlar: *olapopish* – popishak, *olahak-ka* – zag'izg'on, *po'ngqarg'a* – qoraqarg'a, *sinchalak* – chittak, *o'rgamchi* – o'rgimchak, *yorqanot* – ko'rshapalak;

- meva nomlari: *maymunchak* – malina, *olvoli* – olcha, *olmurut* – nokning bir turi, *olu* – olxo'ri, *parman-chak* – maymunjon, *potinjon* – pomidor;

- narsa-buyum nomlari: *zangi* – narvon, *shipirgi* – supurgi, *yarg'ichoq* – yorg'ichoq, *ko'gan* – qo'zi-uloqlar qator qilib bog'lab qo'yiladigan ilmoqli arqon, *nahal* – nag'al va boshqalar.

Ko'rinib turibdiki, O'TILga kiritilgan 450 dan ortiq ot so'z turkumidagi so'zlarni bir qancha mavzuiy guruhlar-ga ajratish mumkin. Lug'atda qo'llangan boshqa turkumidagi so'zlarni ham mavzuiy va semantik jihatdan turlicha guruhlash mumkin.

O'TILda berilgan ba'zi dialektal so'z va birikmalarn-ing adabiy tilda muqobili mavjud emas. Bular:

KO'GAN shv. Qo'zi-uloqlar qator qilib bog'lab qo'yil-adigan (qo'y-echini sog'ishda ishlatiladigan) ilmoq-li arqon; chilvir. [5: 2-jild, 443]. **JELAK** shv. Nimcha, yengsiz yupqa kiyim. [5: 2-jild, 80]. **UVIZ** shv. Og'izning ikki cheti. [5: 4-jild, 262]. **BEGIM KUNI** shv. Belgilangan bozor kunlaridan boshqa kun. [5: 1-jild, 204].

Xalq jonli so'zlashuv tilida shu kabi adabiy tilda muqobili mavjud bo'lmagan yuzlab so'zlarni uchratish mumkin. "O'zbek tilshunosligining bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik lakuna (bo'shliq)larni to'ldirish, bu borada sheva-lardagi so'zlarni adabiy tilga olib kirish va, shu asosda, til leksikasini boyitishdir. Bu borada ayrim ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, til leksikasining lakunar bo'shliqlari va uni sheva so'zlari bilan to'ldirishga alohida diqqat qaratilmagan". [7: 317]

Aslidaxalqjonliso'zlashuvtilida, ya'nishevalardamin-glab so'zlarni uchratish mumkin. S.Ashurboyev "O'zbek

dialektologiyasi" darsligida Sh.Shoabdurahmonovning adabiy tilda o'z o'rnini topishi kerak bo'lgan bir qator so'zlar mavjudligi haqida malumot berib, bir qancha di-alektal so'zlarni keltirib o'tadi. [1: 101]

Dialektal leksikani shu tilda so'zlashuvchi barcha uchun tushunarli so'zga aylantirish uchun, avvalo, bu boradagi tadqiqot ishlarini ko'paytirish, ularni lug'atlarda aks ettirish lozim. Xususan, o'quv lug'atlariga, O'TILga ko'plab dialektal leksikani kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ekan O'TILni yanada zamonaviy-lashtirish, yanada boyitish, yanada mukammallashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki o'zbek tili jamiyat a'zolarining keng ehtiyojlarini qondir-ish sari rivojlanib, hayotning turli sohalarida innovatsion jarayonlar kechmoqda, fan-texnika rivojlanib, ijtimoiy-si-yosiy jarayonlar jadallik bilan ilgarilamoqda. Bu esa o'zbek tili lug'at tarkibiga tobora yangi so'zlarning kirib kelishiga olib keladi. Bunda dialektal leksikaning adabiy tilga singish jarayonini jadallashtirish, dialektal so'zlar ma'nosi izohlangan o'quv lug'atlari sonini ko'paytirish va ularni o'quvchiga va keng kitobxonga yetkazish, di-alektal so'zlar izohli lug'atlarini tuzish ishlarini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni ichki manba bo'lgan dialektizmlar hisobiga boyitish eng aso-siy vazifalardan biridir. Bunday lug'atlardagi so'zlarning izohlanishini lingvistik tahlil qilib borish esa ularning ta-komillashish kaliti vazifasini bajarishi tabiiydir.

Fan-texnika yuksak darajada taraqqiy etayot-gan shiddatli va tezkor davrda o'zbek tilshunosligin-ing barcha sohaları kabi leksikografiyada ham eng so'nggi yutuqlardan foydalanib, zamonaviy, ta'lim sifa-ti samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi lug'atlarni yaratish davr taqozosi hisoblanadi. Bunday lug'atlarni dialektal leksika bilan boyitish muhim hisoblanadi. Bu esa dialektal leksikaning yashovchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tilning lug'at boyligini oshira-di, adabiy tilning ichki manba hisobiga boyishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, dialektal tadqiqotlar va izlanishlar dialek-tizmlarning adabiy til leksikasidan joy olishida muhim omil hisoblanadi. Bu boradagi izlanishlar natijasida tilimizning bebaho boyligi saqlanadi, tilda butun millat uchun tushunilishi oson bo'lgan so'zlar salmog'i ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004.
4. Umarov E. Eski o'zbek lug'atlari. – Toshkent, 1992.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati / A.Madvaliyev tahriri ostida. 5 jildli, 1–5-jildlar. – Toshkent, 2020.
6. Shofqorov A. O'zbek leksikografiyasi tarixidan // Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Issue 2. 2021. pp. 355–359.
7. Hasanov A. Dialektizmlar bilan til leksikasini boyitish mezonlari / O'zbek va tojik filologiyasining dolzarb masalalari mavzusidagi konferensiya. – Xo'jand, 2020.